(3). BBC, Shodiyor Saif. Turkiya O‘zbekistonni do‘st bo‘lmagan davlatlar sirasiga kiritdi. www.bbc.com/uzbek
(4). “Amerika ovozi”, Adham Muhammad. Turkiyaliklar uchun AQSH dushman, O‘zbekiston nodo‘st davlatmi? www.amerikaovozi.com
(5).https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/xorijdagi_vatandoshlar/turkiya_ommaviy_axborot_vositalari_ozbekiston_parlamentidagi_ozgarishlar_haqida.html
(6). UzA, Komilova M. Turkiyaning ommabop «Önce Vatan» gazetasida «Yangi O‘zbekiston» sarlavhali maqola chop etildi. https://uza.uz/oz/posts
(7). https://kknews.uz/oz/137446.html
(8). www.trtavaz.com.tr/haber/
(9). www.trt.net.tr/uzbek
(10). https://dunyo.info/uz/

Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

YUKLAMALARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada yordamchi so‘z turkumiga mansub bo‘lgan yuklama turkumining morfologik va sintaktik xususiyatlari yoritilgan, yuklamalarning darak gaplardan so‘roq gap hosil qilish vazifasi tahlil qilingan. Yuklamalarning affikslarning ikki turiga munosabati, yuklamalarning asosiy qismi lug‘aviy shakl yasovchi affikslarga mansub vazifalarda qo‘llana olishi haqida ilmiy munozara yuritiladi. Unda yuklamalarning sintaktik vazifasi ikkilamchi bo‘lib, morfologik xususiyati asosiy vazifa ekanligi nazariy asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *yuklama, leksema, morfema, so‘z yasovchi qo‘shimcha, sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha, urgu‘, morfologik vazifa, sintaktik xususiyat, darak gap, so‘roq gap, so‘roq gap yasovchi.*

Исаков Закиржон Солиевич (доцент Кокандского государственного педагогического института, кандидат филологических наук)

ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЧАСТИЦЫ

Аннотация. *В статье рассматриваются морфологические и синтаксические особенности категории вспомогательных слов, а также анализируется функция вспомогательных слов при образовании вопросительных предложений из повествовательных предложений. Ведутся научные дебаты о связи флексий с двумя типами аффиксов, а также о том, можно ли использовать большинство флексий в функциях, связанных с аффиксами, образующими лексические формы. Теоретически это основано на том факте, что синтаксическая функция нагрузок вторична, а морфологическая функция является основной.*

Ключевые слова: *частица, лексема, морфема, словообразовательное наречие, синтаксическое формообразующее наречие, ударение, морфологическая функция, синтаксический признак, повелительное предложение, вопросительное предложение, конструктор вопросительного предложения.*

Isakov Zakirzhon Solievich (associate Professor at Kokand State Pedagogical Institute, Candidate of Philological Sciences)

GRAMMATICAL FEATURES OF THE PARTICLE

Annotation. *The article examines the morphological and syntactic features of the category of auxiliary words, and analyzes the function of auxiliary words in the formation of interrogative sentences from declarative sentences. There is a scientific debate about the relationship of inflections with the two types of affixes, and whether most inflections can be used in functions related to affixes that form lexical forms. Theoretically, this is based on the fact that the syntactic function of loads is secondary, while the morphological function is primary.*

Keywords: *load, lexeme, morpheme, word-formation adverb, syntactic form-forming adverb, stress, morphological function, syntactic feature, imperative sentence, interrogative sentence, interrogative sentence constructor.*

Kirish. So‘z turkumlari ichida eng munozaraga sabab bo‘luvchilardan biri yuklama turkumidir. *-mi, -chi, -ki, -da, -a, -u, -oq* kabi qator yuklamalar mavjudki, ularning so‘z yoki so‘z emasligining o‘ziyoq davomli munozaralar uchun asos bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, *-xon, -oy, -bek, -jon, -aloq, -choq* kabi qo‘shimchalar ham mavjud bo‘lib, odatda, lug‘aviy shakl yasovchi atamasi bilan izohlab keluvchi bu xil birliklarning til tizimidagi mavqeyini aniqlash ham bevosita yuqorida qo‘yilgan savollar yechimi bilan bog‘lanadi. Til tizimida yuklama bilan yondosh bo‘lgan hodisalar, avvalo, boshqa yordamchi so‘zlar, shuning-

dek, modal so‘zlar, undovlar, shaklan yaqin keluvchi qo‘shimchalar bilan munosabatlar tizimi ham to‘lig‘icha tiklanmagan va tekshirilgan jihatlari ham nazariy asoslangan maqbul ta’rifga ega emas.

Yuklamalarning grammatik tabiati – morfologik va sintaktik vazifalari borasida tilshunoslar tomonidan turli qarashlar mavjud, bu tortishuvli fikrlarga e’tiborni qaratish asosida yuklamalarning so‘zga qo‘shilish o‘rniga bog‘liq holda shakllanishi so‘z hamda gapga qo‘shimcha ma’no yuklashi xususidagi fikrlarga qo‘shilgan holda, yuklamalarning morfologik belgilarini aniqlashda ularning qo‘shimchalarga shakliy hamda vazifaviy munosabatini tahlillashga e’tibor qaratdik. Yuklamalarning mustaqil leksik ma’noga ega emasligi, grammatik ma’no ifodalashi, sintaktik jihatdan mustaqil bo‘lmaganlik xususiyatlari va darak gapdan so‘roq gaplarni hosil qilish jihatlarini aniqlashga harakat qildik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yuklamalarning grammatik tabiati – morfologik va sintaktik vazifalari borasida adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Yuklamaning morfologik ma’no ifodalash imkoniyati uning sintaktik imkoniyatidan kengroq. Chunki ular mustaqil so‘z va gapga qo‘shimcha ma’no yuklashi bilan ahamiyatli [1;224-b.].Yuklamalarning morfologik belgilarini aniqlashda ularning qo‘shimchalarga shakliy hamda vazifaviy munosabatiga juda ko‘plab tilshunoslar e’tibor bilan qarashgan. Bunday qarashlarning yuzaga kelishiga sabab shaklan ularning ba’zan bir-biriga yaqin kelishidir [3]. V.V.Vinogradov yuklamalarni so‘zlikdan qo‘shimchalikka siljib borayotgan birliklar, deb hisoblaydi. Uning fikricha, muayyan so‘zga bog‘lanib qolishi ularni qo‘shimchalarga yaqinlashtiradi. Olim bunday holatdagi yuklamalarni «prilep» («yopishma», «o‘simta») deb atab, rus tilida agglutinatsiya elementlari, deb baholaydi [4]. Bu borada I.I.Meshchaninovning fikrlari yanada qiziqarlidir. U yuklama va qo‘shimchalar munosabatini alohida ko‘rib chiqmaydi. Ammo quyidagi fikridan ma’lum bo‘ladiki, ularni juda yaqin baholaydi: “...yuklamalar so‘zning sintaktik shakllanuvida ham, yangi lug‘aviy birliklar hosil qilinishida ham keng qo‘llaniladi. Keyingilar sirasiga, masalan, ne inkor yuklamalilik so‘z hosilalar kirishi mumkin: drug so‘zidan nedrug, xoroshiy so‘zidan nexoroshiy, xorosho so‘zidan nexorosho va boshqa” [2]. Professor Sh.Shahobiddinovaning eslatishicha: “Yuklamalarning morfologik qo‘shimcha emasligi, shundan kelib chiqib, morfologik kategoriyalarga birlasha olmasligi ham aniq. Morfologik kategoriya a’zolari o‘zaro izchil ziddiyatlar tizimi hosil qiladi, bir umumiy grammatik ma’noni parchalaydi” [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada yuklamalarning morfologik va sintaktik vazifasini, morfemik nuqtayi nazardan, qo‘shimchalarga shakily va mazmuniy farqli hamda o‘xshashligini taqqoslash, tahlillash, analiz qilish, sintez qilish, qiyoslash, uzviy tahlil, distributsiya metodlari orqali amalga oshirishga harakat qildik.

Tahlil va natijalar. Yuklamalar va qo‘shimchalar munosabati haqida fikr yuritishdan avval taqqoslanuvchi birlik (hodisa)larning o‘ziga xos, muhim belgilari aniqlanmog‘i lozim. Ushbu asosiy yoki muhim belgilar asosidagina taqqoslash amalga oshirilishi lozim.

Ma’lumki, affikslar so‘zga qo‘shilish jihatdan uch turga, ya’ni, suffiks (kishilar), prefiks (baodob), infiks (arab tilida: kitob – kutub) kabi ko‘rinishlarga ega. Bu tasnifda muhim belgi affikslarning joylashgan o‘rni – pozitsiyasi sanaladi. Yuklamalar qo‘shimcha ko‘rinishida so‘zning oxiriga (kerakmi?), o‘rtasiga (kelarmisiz?) qo‘shila oladi. So‘z ko‘rinishida bo‘lganda barcha o‘rinlarda kela oladi: **Axir** men buni bilmasam? Salima **faqat** a’loga o‘qiydi. Siz ham bizdan**mi**?

Bajargan vazifasi yoki funksiyasiga ko‘ra, affikslarning so‘z yasovchi va shakl yasovchi turlarga bo‘-linishi ma’lum. Affikslar shakliy tuzilishiga ko‘ra, sodda (ishchi) va murakkab yoki qo‘shma (mo‘lchilik); kelib chiqishiga ko‘ra, o‘z va o‘zlashma. Fonetik strukturasi, kammahsul va sermahsul kabi turlarga ham ajratiladi. Yuklamalarda ham bu belgilar mavjud, albatta.

Affiksning eng muhim belgisi uning so‘z shakli yasovchi (morfologik affiks) va yangi so‘z hosil qilishidir (so‘z yasovchi affiks). Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, affikslar morfemik va so‘z yasalishi sathining birliklaridir. Demak, affikslar ana shu sathlarda so‘zga qo‘shimcha ma’no berish vazifasini bajaradi. Affikslarni yuklamalarga qiyoslashda ana shu belgilar diqqat markazda turishi darkor. Yuklamalarni affikslarga taqqoslash uchun, avvalo, ularning tarkibi, turlari, vazifalari, qaysi sathga oidligi masalalarini oydinlashtirib olish kerak. Aks holda, taqqoslash, munosabat o‘rnatish mavhum – ilmiy qiymatga ega bo‘lmagan baholash bo‘lib chiqadi.

Ko‘p tilshunoslarning fikricha, yuklama va affikslarning o‘xshashligi ularning shakliy va ma’no jihatlaridadir. Sof affikslik ma’nosi jihatidan affikssimon yuklama va morfologik affiks o‘xshashligi shakliy jihatdadir. Har ikkala tur ham mustaqil so‘z yoki gap bo‘lagiga yordamchi vosita sifatida birikadi. Bu jihatdan ularning farqi keskin emas. Asosiy farq ularning vazifalaridadir: morfologik affiks gapning qurilish materiallari bo‘lgan so‘z shakllarini hosil qiladi, morfologik kategoriya doirasida bo‘ladi. Ayrim yuklama-affikslar esa morfologik affikslar yordamida hosil qilingan gap modelini (nominativ mazmunga) qo‘shim-

cha kommunikativ (nutqiy) ma'nolar berish uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, morfologik affikslar gap ichi qurilishi uchun, ayrim affiks yuklamalar gap qurilmasini kontekstga bog'lash, unga kontekstual – qo'shimcha ma'nolar berish uchun xizmat qiladi. Masalan, Men uyga bordim gapida -ga, -di, -m – morfologik affikslar Men+uy+ga+bor+di+m semantik struktura modelini hosil qiladi (gapning konstruktiv bosqichi). Ta'kidlov yuklama-affikslari ana shu modelga turli kontekstlarda turlicha nutqiy qo'shimcha ma'nolar beradi. Men**ki** uyga bordim... Men-**ku** uyga bordim... Men uyga bordim-**ku**. Men uyga**gina** bordim kabi.

Demak, morfologik affikslar gap konstruktiv qurilishining, ta'kid yuklama-affikslari esa gap komunikativ bosqichining qo'shimcha ma'nolarini ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, morfologik affikslar bilan affikslar vazifalari orasidagi farq "yer bilan osmoncha"dir.

An'anaviy tilshunoslikda til va nutq farqlanmaganligi, gap qolipi aniqlamaganligi uchun ta'kidlov yuklamasining vazifasi – qo'shimcha ma'nosi morfologik affiksning qo'shimcha ma'nosidan keskin farqlanmagan. Boshqacha aytganda, yuklamaning ma'nosini aniqlashda morfologik shakl ma'nosini aniqlashga o'xshash yo'l tutilgan: "so'z ma'nosini ta'kidlaydi", "so'z ma'nosini kuchaytiradi" kabi. Holbuki, so'z ma'nosini ta'kidlash shu gapni kontekstga bog'lash, gapning muayyan bo'lagi (so'z emas) orqali jumlaga qo'shimcha ma'no va mazmun berish bo'lgan. Til va nutq dixotomiyasi gap qolipi, matn kabi tayanch tushunchalar va matnni (nutqni) o'rganish metodlari asosidagina kuchaytiruv-ta'kid yuklamalarining funksional tabiatini ochishi mumkin. Shundagina morfologik affiks bilan affiks-yuklamalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlab olish mumkin.

Endi *-mi* so'roq yuklamasining morfologik affiksga munosabatini ko'rib o'taylik. Bu yuklama shaklan affiksga o'xshasa ham, aslan, affikslardan vazifasi bo'yicha keskin farqlanadi. Bu yuklama gapning ifoda maqsadiga ko'ra, so'roq turini hosil qilish vazifasini bajaradi: darak gapdan so'roq gap hosil qiladi. Amakim bordi→Amakim bordimimi? Yuklama – *-mi*ning ushbu ma'nosi (funksiyasi) nutq, kommunikativ sintaksis bilan bog'liq. An'anaviy morfologiya gap ichidagi so'z shakllari, morfologik affikslar bilan shug'ullanganligi uchun *-mi* yuklamasiga "qo'shimcha ma'no beruvchi" yordamchi sifatida yondashgan. Holbuki, *-mi*ning so'zga (masalan, darak gapga) berayotgan ma'no tabiati butunlay boshqacha tabiatga ega: u gapning ifoda maqsadiga ko'ra, yangi mazmun turini hosil qiladi. Bu jarayonda -mi yuklamasi qo'shimchalarning sintaktik shakl yasovchi turiga vazifadosh bo'lmoqda, chunki gapning ifoda maqsadiga ko'ra bir turidan ikkinchi turi – darak gapdan so'roq gap shaklini hosil qilmoqda.

Bog'lovchi-yuklamalar esa ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasini bajaradi. Bu yordamchilar gapning mazmunini kuchaytirish yoki gapga qo'shimcha ottenka berish uchun qo'llanadi. Bular agar, bordiyu, basharti, mabodo, toki kabi so'zlardir [6;361-b.]. Yuklamalar sodda gapdagina emas, qo'shma gaplarda ham, ko'pincha, ergash gaplarning kesimi tarkibida qo'llanib, ergash gapning mazmuniga turli ottenkalar qo'shadi va komponentlarni biriktirishda ikkinchi darajali yordamchi sanaladi [6;407-b.]: *-ku, -mi, -chi, -da, ham, xuddi.* -ku to'ldiruvchi, ega; -mi, to'ldiruvchi, payt, sabab, shart; -chi to'ldiruvchi, shart; -da, ham to'siqsiz; xuddi o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarning qismlarini bog'lashda ishtirok etishi bayonlanadi. Bu o'rinda yuklamalar ergashgan qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun asosiy vosita bo'la olmasligini ko'ramiz: Ko'rdingiz-*ku*, qancha yerga ekin ekkanman (Oybek). Otasi nasihat qilsa ham, qiz ko'nmadi gapidagi kabi to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda -da, ham yuklamasi ergash gap turini o'zgartirishda -ma – bo'lishsizlik shakli bilan ishlatilganda, shart ergash gapni to'siqsiz ergash gapga aylantiradi.

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslansak, yuklamalardan -mi, -chi, -a, -ya, -ku, -nahotki so'roq gaplarni hosil qilishiga ko'ra sintaktik shakl yasovchilarga yaqin keladi. Agar, bordi-yu, basharti, mabodo, -ku, -mi, -chi, -da, ham, xuddi yuklamalari ergash gap qismlarini bog'lashda boshqa vositalarga yordamchi bo'lgan holda bog'lovchilarga biroz yaqinlashadi; so'z yo gapga ma'no nozikligini qo'shishda lug'aviy shakl yasovchilarga tenglashadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi misollardan yuklamalarning aksari turlarini shakl yasovchi affikslarning lug'aviy shakl yasovchi turiga mansubligini ta'kid etgan bo'lsak, *-mi* yuklamasiga sintaktik shakl yasovchi maqomini bermoqdamiz. -mi bilan birgalikda so'roq gap yasovchi *-chi, -a, -ya*larning tabiati borasida yanada ajoyib ko'rinish hosil etilgan: ular sintaktik shakl yasovchi bo'lish barobarida lug'aviy shakl yasash xususiyati asosiy vazifaga xoslangan bo'ladi, bu fikrimizni yetmishinchi yillar grammatikasi ham dalillaydi: So'roq yuklamalari *-a//-ya, -da, -ku, nahotki* yordami bilan tuzilgan so'roq gaplarda so'roq intonatsiyasining roli katta bo'ladi; *-mi, -chi* yuklamalarida esa intonatsiya u qadar kuchli bo'lmaydi: O'z ixtiyori bilan-a? (A.Qahhor). O'n to'rt so'm? Saksonta qovunga-ya? (Oybek). Demak, olg'a qarab, g'arb tomonga ekan-da? (O.Gonchar). Shu choqqacha hamma ishni ketmon bilan bitira olmabsiz-ku? (A.Qahhor) [6;103-b.].

Umuman, so‘z-yuklamalar, affiks-yuklamalarning so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslarga munosabati til va nutq oppozitsiyasi, matn, kommunikativ sintaksis, gap qolipi, kontekst gapning formal-konstruktiv va kommunikativ aspektlari kabilar asosga olingandagina atroflicha va to‘liq ochilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mengliyev B. Qomus. Toshkent, 2009, 224, 272-betlar.
(2). Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. Л., “ Наука”, 1978, с. 373.
(3). Nurmonov A. va boshq. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2001, 49-bet.
(4). Виноградов В.В. Русский язык. М., “Высшая школа”, 1986, с. 554.
(5). Shahobiddinova Sh. Ayrim qo‘shimchalarning mavqeyi xususida. “O‘TA”, 2000, № 5, 27–28-betlar.
(6). O‘zbek tili grammatikasi. II tom, Toshkent, “Fan”, 1976, 610 bet.

Matyakubov Xakimboy Xamidjanovich (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori)

O‘ZBEK VA INGLIZ TOPONIMIK TIZIMINI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY OMILLAR QIYOSI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi toponimlarning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydigan omillar muhokama qilingan. Jumladan, tarixiy, lingvistik va boshqa omillar muhokama qilinib, shu yo‘nalish bo‘yicha ish olib borgan ayrim lingvistlarning qarashlari tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar*: tarixiy omil, lingvistik omil, etnik omil, fermer.*

Матякубов Хакимбай Хамиджанович (доктор философии по филологическим наукам)

СРАВНЕНИЕ ОСНОВНЫХ ФАКТОРОВ, ОБРАЗУЮЩИХ УЗБЕКСКУЮ И АНГЛИЙСКУЮ ТОПОНИМИЧЕСКУЮ СИСТЕМУ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются факторы, играющие основную роль в формировании топонимов в узбекском и английском языках. В частности, обсуждаются исторические, лингвистические и другие факторы, а также анализируются взгляды некоторых лингвистов, работавших в этом направлении.*

Ключевые слова: *исторический фактор, языковой фактор, этнический фактор, фермер.*

Matyakubov Khakimboy Khamidjanovich (doctor of philosophy (PhD)

THE COMPARISON OF MAIN FACTORS FORMING THE SYSTEM OF TOPONYMS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation. *In this article, the main features that play a major role in making toponymys in both languages are analyzed. For example, historic, lingvistic and many other factors are discussed and the works of some lingvists who held research in this field are looked through.*

Key words: *historic factor, lingvistic factor, ethical factor, farmer.*

Kirish. O‘zbek va ingliz toponimlarini shakllantirgan asosiy omillar qiyosiy antroposentrik tahlili har ikkala xalq tafakkuri umumiyligi hayratlanarli, ya’ni biz kutgandan ham yaqin ekanini ko‘rsatuvchi faktlar taqdim qiladi. Barcha geografik nomlar o‘ziga xos ma’noga ega. Hech bir daryo, ko‘l yoki qishloq tovushlarning tasodifiy birikmasi bilan nomlanmagan. Ba’zan ma’lum bir daryo, qishloq, shahar nomiga izoh topish qiyin. Ammo ajablanarlisi shundaki, ona tilimizning ayrim eskirgan, unutilgan so‘zlarigina emas, xorijiy, hatto yo‘qolib ketgan “o‘lik” tillarning ba’zi izlari toponimlar tufayli bugungi kunda ham mavjud. Har bir so‘zning ortida ajoyib hikoyalar, ko‘pincha, afsonalar va ba’zan ajib mutoyibalar yotadi. Insoniyat tarixi geografik nomlar silsilasiga muhrlanganga o‘xshaydi, ular, o‘z navbatida, toponimlar, haqiqatan, o‘tmish tarixi shohidlaridir, deyishga asos bo‘la oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. R.Koates o‘z tadqiqotlarida Kanal orollari, Xempshir va Sasseks tarixiy grafliklari toponimlarining xususiyatlarini o‘rganib chiqdi va “A new explanation of the name of London”[1](1998) asarida Londonning yangi etimologiyasini taklif qildi. London nomini tushuntirishga urinishlar tarixi chizilgan, ularning hech biri muammoni hal qilishda muvaffaqiyat qozona olmagan degan xulosaga keldi. Taxminan, yangi yechim taklif qilinmoqda, bu esa uni Hans Krahe tomonidan o‘rnatilgan ma’noda, dastlab, Yevropa toponimiyasining Qadimgi Yevropa qatlamining bir qismini tashkil etgan keltlashgan daryo nomidan kelib chiqqan, ehtimol, kelt joy nomi bo‘lgan bo‘lishi mumkin, tarzida tushuntiradi. Taklifni qo‘llab-quvvatlash uchun topografik argumentlar, shuningdek, daryolar va ularning estuariyalari uchun inglizcha nomlashdan oldingi argumentlardan foydalaniladi. Taklif etilayotgan etimologiya,

[1] Coates R. A New Explanation of the Name of London. Volume96, Issue2, November 1998, p. 203–229.